



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 26-dekabr

264-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-sentabrdagi 599-sonli va shu haqidagi Farg‘ona viloyati hokimining 2025 yil 29-sentabr kungi 489-11-0-Q/25-sonli qarori haqida

Tuman hududlaridagi elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlarining texnik holatini talab darajasiga keltirish, ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasini iste’molchilarga barqaror yetkazib berishni ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-sentabrdagi “Uzatish va taqsimlash tizimlarini rivojlantirish va tartibga solishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 599-sonli va shu haqidagi Farg‘ona viloyati hokimining 2025 yil 29-sentabr kungi 489-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-sentabr kunidagi “Uzatish va taqsimlash tizimlarini rivojlantirish va tartibga solishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 599-sonli va shu haqidagi Farg‘ona viloyati hokimining 2025 yil 29-sentabr kungi 489-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ushbu qaroriga muvofiq: respublika va hududiy ishchi guruhlar tomonidan “Hududiy elektr tarmoqlari”AJ tizimidagi mavjud 35 kV va undan yuqori kuchlanishli elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlarida o‘tkazilgan xatlov natijalariga muvofiq elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlarining texnik holatini o‘rganish va tuzilgan dalolatnomalarni tahlil qilgan holda obyektlarning “**yashil**”, “**sariq**” va “**qizil**” toifalarga ajratilgani va bunda:

2017-yildan so‘ng qurib ishga tushirilgan, zaxira quvvatga ega, barqaror ishlab turgan, texnik nuqsonlar qayd etilmagan, shuningdek, tegishli dasturlar doirasida modernizatsiya va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilayotgan elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlari - “**yashil**”;

zaxira quvvatga ega bo'lmagan, jiddiy texnik nuqsonlar aniqlanmagan, yaqin istiqbolda mukammal ta'mirlash, shuningdek, modernizatsiya va rekonstruksiya qilinishi zarur bo'lgan elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlari - **“sariq”**;

2024-2025-yillar kuz-qish mavsumida eng ko'p o'chishlar sodir bo'lgan, o'ta yuqori yuklama bilan ishlayotgan, jismonan va ma'nan eskirgan, uzoq muddatdan buyon mukammal ta'mirlash ishlari amalga oshirilmagan hamda jiddiy texnik kamchiliklar aniqlangan elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlari - **“qizil”** toifaga mansub deb topilgani;

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tasarrufidagi 35 kV va undan yuqori kuchlanishli elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlari “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJga qoldiq (balans) qiymatida beg'araz o'tkazilgani;

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tizimida mavjud 35 kV va undan yuqori kuchlanishli elektr xo'jaligi obyektlarini “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ boshqaruviga o'tkazish bo'yicha harakatlar rejasi tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Xatlov natijalariga muvofiq, “Farg'ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ tasarrufidagi podstantsiyalar **ilovaga** asosan **“yashil”**, **“sariq”** va **“qizil”** toifalarga ajratilganligi inobatga olinsin.

4. Farg'ona viloyati hokimining mazkur qaroriga muvofiq:

“Elektr taminoti korxonasi” AJ Farg'ona tuman bo'limi rahbari (M.To'xtasinov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov) bilan birgalikda 2025-yil yakuniga qadar uzatish tizimini rivojlantirish rejasini (10 yillik) ishlab chiqsin;

Bunda, birinchi navbatda, dastlabki yillarda **“sariq”** toifadagi elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlari bo'yicha texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqqan holda, xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar moliya tashkilotlari mablag'larini jalb qilish inobatga olinsin.

5. Kadastr agentligi Farg'ona tuman filiali rahbari (V.Esonov), Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (B.Burxonov), “Elektr taminoti korxonasi” AJ Farg'ona tuman bo'limi rahbari (M.To'xtasinov), bilan birgalikda:

bir oy muddatda elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish uchun zarur yer uchastkalarini tanlab olsin va ushbu yer uchastkalari hamda yer ajratish hujjatlari bo'lmagan mavjud obyektlarning yer uchastkalari chegaralariga aniqlik kiritib, tegishliligi bo'yicha ommaviy servitut belgilash va zaruratga ko'ra, ularning toifalarini o'zgartirish yuzasidan Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va o'rmon fondi yerlarining yer fondi toifalarini o'zgartirish masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha Hukumat komissiyasiga taklif kirtsin;

buyurtmachi tomonidan loyiha hujjatlari asosida taqdim etiladigan tegishli yer

uchastkalarining yer fondi toifasi belgilangan tartibda o'zgartirilib, hokimlik zaxirasiga qaytarilgandan so'ng Energetika vazirligiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosarlari O.Abduraximov, M.Qodirxonov hamda "Elektr taminoti korxonasi" AJ Farg'ona tumani bo'limi rahbari M.To'xtasinov zimmasiga yuklansin.

Farg'ona tuman hokimi



Inomov X.T

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 26-dekabrdagi
264-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**“Farg‘ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ tasarrufidagi
35-110 podstansiyalar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

№	Hudud nomi	PS nomi	Turi	Dis nomi	quvvati	Qizil toifaga kiritilgan	Sariq toifaga kiritilgan	Yashil toifaga kiritilgan
1	Farg‘ona tuman	Langar 110/35/10	TDTN	T-1	10	1		
			TDTN	T-2	10	1		
2		Progress 110/10	TDTN	T-1	10			1
3		Broyler 35/10		T-1	6.3		1	
				T-2	4		1	
4		Vodil 35/10		T-1	4	1		
				T-2	10			1
5		Log‘on 35/10		T-1	4		1	
6		Oqtom 35/10		T-1	4		1	
				T-2	4		1	
7		Chimyonsano at 35/6		T-1	1.6		1	
				T-2	4		1	
8		Chimyonqish loq 35/10		T-1	7.5		1	
				T-2	6.3		1	
9		Shohimardon 35/10		T-1	2.5		1	
10		Vodokanal 35/6		T-1	2.5			1
				T-2	2.5			1
		Yangi Asr 110/10		T-1	10			1
				T-2	10			1